

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASINING QONUNI

FAZOVIIY MA'LUMOTLAR TO'G'RISIDA

Qonunchilik palatasi tomonidan 2020-yil 26-dekabrda qabul qilingan
Senat tomonidan 2021-yil 29-mayda
ma'qullangan

1-bob. Umumiy qoidalar

1-modda. Ushbu Qonunning maqsadi

Ushbu Qonunning maqsadi fazoviy ma'lumotlar sohasidagi munosabatlarni tartibga solishdan iborat.

2-modda. Fazoviy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik

Fazoviy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchilik ushbu Qonun va boshqa qonunchilik hujjatlaridan iboratdir.

Agar O'zbekiston Respublikasining xalqaro shartnomasida O'zbekiston Respublikasining fazoviy ma'lumotlar to'g'risidagi qonunchiligida nazarda tutilganidan boshqacha qoidalar belgilangan bo'lsa, xalqaro shartnoma qoidalari qo'llaniladi.

3-modda. Asosiy tushunchalar

Ushbu Qonunda quyidagi asosiy tushunchalar qo'llaniladi:

fazoviy ma'lumotlar — fazoviy obyektlar to'g'risidagi, shu jumladan ularning joylashgan yeri, shakli va muayyan shaklda hamda fazoviy-vaqt koordinatalari tizimlarida taqdim etilgan boshqa xossalari haqidagi ma'lumotlarni o'z ichiga olgan ma'lumotlar;

fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish — fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarni yaratish, yig'ish, tizimlashtirish, saqlash, o'zgartirish, yangilash, vizuallashtirish, ulardan foydalanish, ularni taqdim etish, tarqatish va uzatish bo'yicha bir yoki bir nechta harakatlar yig'indisini amalga oshirish;

metama'lumotlar — fazoviy ma'lumotlarning to'plamlari, servislari va boshqa xususiyatlarini tavsiflash imkonini beradigan, ularni identifikatsiya qilish, izlash, inventarizatsiyalash va ulardan foydalanish uchun zarur bo'lgan ma'lumotlar;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportali — geoaxborot resurslari to'g'risidagi metama'lumotlarni saqlab turadigan va ulardan foydalanishni Internet jahon axborot tarmog'i orqali ta'minlaydigan fazoviy ma'lumotlarning internet vositalari va servislarning majmuasi;

fazoviy ma'lumotlardan foydalanuvchi (bundan buyon matnda foydalanuvchi deb yuritiladi) — fazoviy ma'lumotlardan foydalanadigan jismoniy yoki yuridik shaxs;

fazoviy obyektlar — joylashgan yeri belgilangan fazoviy-vaqt koordinatalari tizimida aniqlanishi mumkin bo'lgan tabiiy va sun'iy obyektlar.

4-modda. Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari

Ushbu Qonunning asosiy prinsiplari quyidagilardan iborat:

qonuniylik;

fazoviy ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi;

bazaviy fazoviy ma'lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalana olish;

fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarning himoyalanganligi.

5-modda. Qonuniylik prinsipi

Fazoviy ma'lumotlar sohasidagi munosabatlar O'zbekiston Respublikasining [Konstitutsiyasiga](#), ushbu Qonunga va boshqa qonunchilik hujjatlariga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

6-modda. Fazoviy ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi prinsipi

Fazoviy ma'lumotlarning aniqligi va ishonchliligi:

davlat geodeziya, nivelir va gravimetriya tarmoqlarini ishlash holatida saqlab turish;

davlat topografik xaritalarini kartografik monitoring qilish va uzluksiz yangilab borish tizimini joriy etish;

tartibga solingan koordinatalar tizimlaridan va mavjud bazaviy fazoviy ma'lumotlardan davlat axborot resurslarini hamda yangi bazaviy fazoviy ma'lumotlarni yaratishda foydalanish;

bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlar hamda metama'lumotlarning doimiy monitoringi, ilmiy-texnik ekspertizasi va nazoratini amalga oshirish hisobidan ta'minlanadi.

7-modda. Bazaviy fazoviy ma'lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalana olish prinsipi

Bazaviy fazoviy ma'lumotlarning ochiqligi va ulardan foydalana olish:

bazaviy fazoviy ma'lumotlar tarkibida davlat sirlarini va qonun bilan qo'riqlanadigan boshqa sirni, shuningdek foydalanilishi qonunchilikka muvofiq cheklangan boshqa axborotni tashkil etadigan ma'lumotlarning mavjud emasligi;

foydalanuvchilarga bazaviy fazoviy ma'lumotlardan erkin foydalanish, shu jumladan umumiy foydalanishdagi telekommunikatsiyalar tarmoqlari, shuningdek Internet jahon axborot tarmog'i orqali foydalanish imkoniyatini berish hisobidan ta'minlanadi.

8-modda. Fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarning himoyalanganligi prinsipi

Fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarga ishlov berish ularning himoyalanganligi yuzasidan qonunchilikda belgilangan talablarga muvofiq amalga oshirilishi kerak.

Fazoviy ma'lumotlar va metama'lumotlarni himoya qilish:

shaxs, jamiyat va davlat xavfsizligiga tahdidlarning oldini olish;

qonunchilikda belgilanadigan hollarda ushbu ma'lumotlarning maxfiyligini saqlash;

ularning buzilishi va soxtalashtirilishining oldini olish maqsadida amalga oshiriladi.

2-bob. Fazoviy ma'lumotlar sohasini davlat tomonidan tartibga solish

9-modda. Fazoviy ma'lumotlar sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari

Fazoviy ma'lumotlar sohasidagi davlat siyosatining asosiy yo'nalishlari quyidagilardan iborat:

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirish;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradigan shaxslarning fazoviy ma'lumotlar sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtirish;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish;

bazaviy fazoviy ma'lumotlarning, ular metama'lumotlarining barcha manfaatdor subyektlar uchun ochiqligini va ulardan foydalana olishni ta'minlash;

xalqaro hamkorlikni rivojlantirish.

10-modda. O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining fazoviy ma'lumotlar sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi:

fazoviy ma'lumotlar sohasida yagona davlat siyosati amalga oshirilishini ta'minlaydi;

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni tasdiqlaydi;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibini tasdiqlaydi;

ommaviy foydalanish uchun ochiq bo'lgan fazoviy ma'lumotlar ro'yxatlarini belgilaydi;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish bo'yicha Muvofiqlashtiruvchi kengash to'g'risidagi nizomni va uning tarkibini tasdiqlaydi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

11-modda. Fazoviy ma'lumotlar sohasidagi maxsus vakolatli davlat organining vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Davlat soliq qo'mitasi huzuridagi Kadastr agentligi fazoviy ma'lumotlar sohasidagi maxsus vakolatli davlat organidir (bundan buyon matnda maxsus vakolatli davlat organi deb yuritiladi).

Maxsus vakolatli davlat organi:

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi davlat dasturlari va boshqa dasturlar loyihalarini ishlab chiqadi hamda O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga kiritadi;

davlat va xo'jalik boshqaruvi organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradigan shaxslarning fazoviy ma'lumotlar hamda Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish sohasidagi faoliyatini muvofiqlashtiradi;

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi davlat dasturlarining va boshqa dasturlarning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq ishlarning bajarilishini ta'minlaydi;

bazaviy fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni, Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportalini yaratishga va uning faoliyat ko'rsatishiga doir ishlarni amalga oshiradi;

ilmiy-tadqiqot, tajriba-konstruktorlik va tajriba-texnologik ishlarni bajaradi, fazoviy ma'lumotlar sohasida texnik va dasturiy vositalar yaratilishini ta'minlaydi;

o'z vakolatlari doirasida normativ-huquqiy hujjatlarni va texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni ishlab chiqadi va tasdiqlaydi;

fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish jarayonlari ustidan davlat nazoratini amalga oshiradi;

fazoviy ma'lumotlar sohasida xalqaro hamkorlikni amalga oshiradi.

Maxsus vakolatli davlat organi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

12-modda. O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligining fazoviy ma'lumotlar sohasidagi vakolatlari

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi:

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi yagona davlat siyosatini shakllantirish va amalga oshirishda ishtirok etadi;

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

maxsus vakolatli davlat organi, shuningdek boshqa davlat organlari va fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradigan shaxslar bilan hamkorlikda qonunchilikka muvofiq milliy xavfsizlikni hamda davlat mudofaasini ta'minlash maqsadida fazoviy ma'lumotlarni yaratishni, Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining texnik va dasturiy vositalarini ishlab chiqishni tashkil etadi;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq ishlarda ishtirok etadi.

O'zbekiston Respublikasi Mudofaa vazirligi qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

13-modda. Davlat organlarining fazoviy ma'lumotlar sohasidagi vakolatlari

Davlat organlari, shu jumladan mahalliy davlat hokimiyati organlari:

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi yagona davlat siyosatini shakllantirishga doir takliflarni ishlab chiqish va kiritishda ishtirok etadi hamda uning amalga oshirilishini ta'minlaydi;

fazoviy ma'lumotlar sohasidagi davlat dasturlarini va boshqa dasturlarni ishlab chiqish hamda amalga oshirishda ishtirok etadi;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirish bilan bog'liq ishlarda ishtirok etadi;

maxsus vakolatli davlat organi bilan hamkorlikda tegishli tarmoq uchun sohaga oid fazoviy ma'lumotlar ishlab chiqilishini hamda tarmoqqa oid geoaxborot resurslarini ishlab chiqishga va Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportallarini yaratish hamda saqlab turishga doir ishlarning bajarilishini tashkil etadi;

bazaviy fazoviy ma'lumotlarning va metama'lumotlarning maxsus vakolatli davlat organiga taqdim etilishini ta'minlaydi;

sohaga oid ochiq fazoviy ma'lumotlardan foydalanilishini ta'minlaydi;

tegishli tarmoq yoki hudud uchun sohaga oid fazoviy ma'lumotlarga ishlov berilishini amalga oshiradi.

Davlat organlari qonunchilikka muvofiq boshqa vakolatlarni ham amalga oshirishi mumkin.

3-bob. Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi

14-modda. Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining ta'rifi

Ushbu Qonunda Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi deganda tashkiliy tuzilmani, ilmiy-texnika siyosatini, texnik va dasturiy vositalarni, bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlarni, metama'lumotlarni hamda metama'lumotlar bazalarini, fazoviy ma'lumotlar servislarini, normativ-huquqiy hujjatlarni, shuningdek texnik jihatdan tartibga solish sohasidagi normativ hujjatlarni, xalqaro standartlarni, O'zbekiston Respublikasi hududida foydalaniladigan fazoviy ma'lumotlarni ishlab chiqish, yangilash, ularga ishlov berish va ularni integratsiyalash masalalari bo'yicha O'zbekiston Respublikasining davlat standartlarini o'z ichiga oladigan tizim tushuniladi.

15-modda. Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibi

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini yuritish tartibi:

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining fazoviy ma'lumotlariga va metama'lumotlariga ishlov berish tartibini;

maxsus vakolatli davlat organining fazoviy ma'lumotlar sohasidagi faoliyati tartibini;

fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradigan shaxslarning maxsus vakolatli davlat organi bilan hamkorlik qilish tartibini;

ishlov berilishi tegishli davlat organlari hamda fazoviy ma'lumotlarga ishlov berishni amalga oshiradigan shaxslar tomonidan tashkil etiladigan bazaviy va sohaga oid fazoviy ma'lumotlar turlarini;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi fazoviy ma'lumotlarining, metama'lumotlarining, texnik va dasturiy vositalarining operatsiyaviy jihatdan mosligini ta'minlovchi talablarni;

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasini rivojlantirishga doir ishlarning holati haqidagi har yilgi hisobotning tuzilishini, mazmunini, uni tayyorlash tartibini va hisobotni O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasiga taqdim etish muddatlarini belgilaydigan qoidalarni o'z ichiga oladi.

16-modda. Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportallari tarmog'i

Maxsus vakolatli davlat organi tomonidan Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasi tarkibida Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportallari tarmog'i yaratiladi va uning fazoviy ma'lumotlarning quyidagi servislar bilan faoliyat ko'rsatishi ta'minlanadi:

axborot tarmoqlaridagi fazoviy ma'lumotlarni va fazoviy ma'lumotlar servislarini aniqlashni ta'minlaydigan qidiruv;

fazoviy ma'lumotlarni, geofazoviy obyektlarning xususiyatlari va metama'lumotlarning mazmuni to'g'risidagi axborotni ko'rib chiqish;

fazoviy ma'lumotlarga ishlov berish imkoniyatini va (yoki) ularning ko'chirma nusxalarini olishni ta'minlashga doir foydalanish;

fazoviy ma'lumotlar koordinatalarini bir koordinatalar tizimidan yoki kartografik proyeksiyadan boshqasiga o'zgartirishni ta'minlaydigan koordinatalar operatsiyalari.

Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportallari tarmog'i Fazoviy ma'lumotlar milliy infratuzilmasining geoportalini va davlat organlarining geoportallarini o'z ichiga oladi.